



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Hasanov Ahmadjon Isa o'g'li ¹

¹ Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o'qituvchi,
Samarqand, O'zbekiston

SADRIDDIN AYNIYNING “SUDXO‘RNING O‘LIMI” ASARIDA OO‘LLANGAN IJTIMOIIY TERMINLARNING SEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya: Ma'lumki, yozuvchi qahramonning qiyofasini kitobxon ko'z o'ngida to'laqonli gavdalantirish uchun uning nutqida o'ziga xos tarzda terminlarni qo'llaydi. Muallif nutqining ichki imkoniyatlarining asosiy xususiyatlarini aynan terminlar namoyish qiladi. Yozuvchilar asarda qahramonlarning xarakterini, ularning o'ziga xos fazilatlarini alohida chizgilar yordamida ta'riflamaydi. Qahramonlar nutqida muayyan terminlarni qo'llash orqali ularning shaxs sifatidagi xislatlarini ro'y-rost ko'rsatib beradi. Har bir yozuvchining so'z qo'llash mahorati ham ana shundadir. Maqolada muallif nutqini til birliklarining ichki imkoniyatlarini namoyish qiluvchi terminlar yirik so'z san'atkorlari, mahoratli adib Sadriiddin Ayniyning “Sudxo'ring o'limi” nomli qissasi misolida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kosib, Noib, Oqsaqol, Arbob, Vasiqa, Muhr, Xat, Vasiqa tayyorlash, Veksel, Rusch hujjat, Notarus, Dekret, Tilxat, Gazeta, Inqilob, Bolsheviklar, Knyazlar.

Badiiy asarda muallif nutqi orqali nafaqat asar g'oyasi, unda tasvirlanayotgan voqea-hodisalar aks etadi, balki personajlar xarakteri, ruhiyati, tashqi olamga bo'lgan munosabati, qiziqishlari, kasb-kori, jinsi haqidagi ma'lumotlar ham bevosita namoyon bo'ladi. Bu jihatdan muallif nutqini til birliklarining ichki imkoniyatlarini namoyish qiluvchi nutqiy birlik hisoblash mumkin. So'z ustasi badiiy asar yaratar ekan, tilning maxsus birliklaridan, shu jumladan, terminlardan ham qahramonlarning nutqini individuallashtirishda unumli foydalanadi. Yozuvchi qahramonning qiyofasini kitobxon ko'z o'ngida to'laqonli gavdalantirish uchun uning nutqida o'ziga xos tarzda terminlarni qo'llaydi. Buni yirik so'z san'atkorlari, mahoratli adib Sadriiddin Ayniyning “Sudxo'ring o'limi” nomli qissasi misolida yoritishga harakat qilamiz.

Biz tarkibidagi ijtimoiy terminlarning semantikasini tahlil qilishni maqsad qilgan Sadridin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” nomli qissasi hajviy qissasi 1939 yilda yozilgan. Hajviy qissada xalq birdek azob chekkan, oddiy fuqarolarning bor-yog‘ini ham pullab, foiz hisobida foyda ko‘radigan, o‘ta xasis, ko‘zlarini pulga o‘chlik ko‘r qilgan, har doim pul topish haqida o‘ylaydigan, o‘zini namozxon ko‘rsatib odamlardan nazr-niyoz undirishdek qabih ishga qo‘l uradigan, odamlarning janozasiga faqat ulush olish uchun boradigan, ma'naviy o‘lik, mol-u dunyoga mute, ma'nan qashshoq insonlarning umumlashma obrazi sifatida Qori Ishkamba qalamga olinadi.

“Sudxo‘rning o‘limi” asarining bosh qahramoni orqali jamiyatimizdagi ma'naviy bir kemtiklik yoritilgan. Chunki Qori Ismatdek Olloh bergan rizqiga qanoat qilmay birovning noni va mehnati ortidan qorin to‘ydirish, hayotda faqat o‘zini va “jonajon” oshqozonini o‘ylaydiganlar kam emas. Bunga o‘sha davrdagi sudxo‘rlar va boylar yaqqol misoldir.

Adib ham bu mavzuni bekor yoritmagan, nafaqat sudxo‘rlar va ularga sherik bo‘lgan noiblar, qozilar ham qoralanadi. Kitobxonning e'tiborini esa oddiy xalqqa qaratadi: ularning ahvoli bilan tanishtiradi, bir ular bilan hamdard bo‘ladi.

“Sudxo‘rning o‘limi” qissasining leksik tizimi rang-barang bo‘lib, unda ijtimoiy leksikaga xos terminlar katta o‘rin egallaydi. Ular o‘ziga xos uslubiy-semantik xususiyatlarga ega. Shulardan biri **davlat boshqaruvi va davlatchilik tizimiga oid leksik ma’noli birliklardir.**

Asarda davlat boshqaruvi va davlatchilik tizimiga oid ijtimoiy terminlar asosan o‘sha davrga oid leksemalarning uslubiy semantik xususiyatlarini qamrab olgan. Quyida ushbu terminlardan ba’zilarining lug‘aviy semantik xususiyatlarini tahlilga tortamiz:

Kosib – *Ikki boshdan men boy bo‘lmayman, qaysi sartorosh yo kosib boy bo‘lganki, men boy bo‘lar edim. (10-bet)*

Noib – *Bu kishi qo‘llari uzun, barakali odam, - dedi noib va oqsaqollardan so‘radi: Hamrohrafiq yerlarining yonidagi yerlar egasi kim? (81-bet)*

Oqsaqol - *Sangsabz qishlog‘ining oqsaqoli Arbob Ro‘zi, deb javob berdi oqsaqol, ona o‘zlari ham kelib qoldilar. (81-bet)*

Arbob – *Sangsabz qishlog‘ining oqsaqoli Arbob Ro‘zi, deb javob berdi oqsaqol, ona o‘zlari ham kelib qoldilar. 81-bet*

Notarius – *Mayli, zarari yo‘q, notariusning oldiga boramiz, biror xat-savodli odam sening iltimosing bilan qo‘l qo‘yadi. 125-bet*

Ushbu matnda qo‘llangan *oqsaqol, arbob, noib, notarius, tilmoch, knyaz* terminlari davr boshqaruv tizimi haqida umumiy tasavvur uyg‘ota oladi. *Kosib, sartarosh* terminlari esa davrda mavjud kasblar haqida ma’lumot beradi.

U vaqtda, - dedi noib – qozi kalon muhri bilan muhrlatib sizga beriladigan parcha xat sizning qo‘lingizda “o‘tkir pichoq” vazifasini bajaradi va u pichoqni ish uning terisini shilib, sizga topshiradigan “qassob” men bo‘laman. (76-bet).

Mazkur parchadagi qassob termini qo‘shirnoqqa olingan, boisi so‘z ko‘chma ma’noda qo‘llanilib, metaforik ma’no ifodalashga xizmat qilgan.

Qissaning juda ko'p o'rinlarida yozuvchi Qori Ishkambaning fe'l-atvori va qiyofasini kitobxon ko'z o'ngida jonlantirish uchun pragmatik yukni terminlarga yuklagan. Shu orqali qahramonning xarakterini va nutqining o'ziga xos xususiyatlarini ochib bergan.

Adib asarda, ayniqsa, *vasiqa, muhr, veksel, dekret, tilxat* kabi iqtisodiy terminlardan muvaffaqiyatli foydalangan, ularni badiiy dialogik nutqqa olib kirgan:

Vasiqa – *Endi yerlarimni tekshirish va vasiqa qilish uchun qachon borasiz? 71-bet*

Muhr - *U vaqtda, - dedi noib – qozi kalon muhri bilan muhrlatib sizga beriladigan parcha xat sizning qo'lingizda “o'tkir pichoq” vazifasini bajaradi va u pichoqni ish uning terisini shilib, sizga topshiradigan “qassob” men bo'laman. 76-bet*

Xat – *U vaqtda, - dedi noib – qozi kalon muhri bilan muhrlatib sizga beriladigan parcha xat sizning qo'lingizda “o'tkir pichoq” vazifasini bajaradi va u pichoqni ish uning terisini shilib, sizga topshiradigan “qassob” men bo'laman. 76-bet*

Vasiqa tayyorlash – *Maslahat, dedi noib, lekin qishloqqa borib, u yerning katta kichiklari orasida gaplashib vasiqa tayyorlashimiz kerak.*

Veksel – *Qozixona vasiqasi o'rnida “veksel”, dedi Qori Ishkanba va ketmoqchi bo'lib o'rnidan turdi. 120-bet*

Dekret - *Petrograd, Moskva va boshqa katta shaharlardagi banklarni qo'lga oldilar, fabrika-zavodlarni oldilar, konlarni oldilar, butun mamlakatdagi dehqonchilik asboblari bilan birga o'zi ishlovchi dehqonlarniki deb dekret chiqardilar. 176-bet*

Tilxat-*Undan keyin daftarini ochib bu hisobni yozdi va daftarining jiltidan boyvachchaning tilxatini chiqarib, uning qo'liga berdi. 64-bet*

Sadriddin Ayniy asarda qahramonlarning xarakterini, ularning o'ziga xos fazilatlarini alohida chizgilar yordamida ta'riflamaydi. Qahramonlar nutqida muayyan terminlarni qo'llash orqali ularning shaxs sifatidagi xislatlarini ro'y-rost ko'rsatib beradi. Yozuvchining so'z qo'llash mahorati ham ana shundadir.

Xalq tilida lungi so'zi mavjud. Bu so'z “O'zbek tilining izohli lug'ati”da ko'p ma'noli so'z sifatida izohlangan va quyidagi ma'nolarni ifodalashi ko'rsatilgan: **LUNGI** [f. — bel va songa o'raluvchi mato parchasi]. **1** Hammomga kirganda, beldan pastni berkitish uchun bog'lanadigan mato. *Afandi bir kuni hammomga tushgan edi, hammomchi uni nazarga ilmay, eski tos, yirtiq lungi berdi. “Latifalar”.* **2** esk. Sartaroshlikda soch-soqol oldiruvchi kishining ko'ksiga tutiladigan sochiq. *Mo'ysafid sartarosh uni [Yo'lchini].. kursiga o'tqazib, kirdan qatirmalanib yaltiragan lungini bo'yniga ilib, boshish ishqalay boshladi.* Oybek, Tanlangan asarlar. **3** shv. Sochiq, piyola sochiq. *Samovarda choy-furushning bir o'zi mog'or lungisi bilan yelpinib o'tirar edi.* M. Ismoilov, Farg'onat. o.

Qoziq lungi, qoziqlungi Yosh kelinchakning uyini yasatishda qoziqqa ilib qo'yiladigan, kashta tikilgan uzun sochiq.¹

Asarda bu so'z “sartaroshlikda soch-soqol oldiruvchi kishining ko'ksiga tutiladigan sochiq” ma'nosida qo'llangan: *Lekin sartarosh bunga yo'l qo'ymadi va chaqqonlik bilan qo'lidagi ustara va qayroqni oyna oldidagi javon ustiga qo'ydi-da; sallani ikki qo'llab Qori-Ishkambaning qo'lidan ola turib: - Sallangiz shunday katta va og'irki, agar u yerga*

¹¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, 2006. 2-jild, 511-bet.

ilsangiz, qoziq sinib, **lungilar** yerga tushib, tuproqqa belangan bo'lur edi, - dedi va sallani supacha ustiga qo'ydi.

✓ Xayriyatki, - dedi Qori-Ishkamba, - **lungilaringiz** tufayli mening sallamni ham tuproqqa belanishdan qutqardingiz, bo'lmasa besh misqol sovunga kuygan bo'lar edim.

Yana bir ijtimoiy termin jomashov so'zi ham qissada faol qo'llangan. Bu so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bir ma'noli so'z sifatida izohlangan: **JOMASHOV** - f. - (kir) yuvadigan idish] Kir yuvadigan tog'ora. U [Latofat] kirni buvilardan qolgan rasm bilan jomashovda, cho'nqayib o'tirib yuvmaydi. Shuhrat, Shinelli yillar.² Asardagi misollarga murojaat qilamiz: - Sizning sallangiz tuproqqa tushsa hech bir zararlanmas edi, - dedi sartarosh, - ko'pdan beri **jomashov** yuzini ko'rmagan bo'lsa kerakki, tuproqdan ham farqsizroq holga kelgan;

✓ Bunday katta sallani haftada bir jomashovga solish mumkin emas, - dedi Qori-Ishkamba,

✓ u holda sovunning uyi kuyadi. - Nega bo'lmasa kichikroq qilmaysiz?

✓ Kichikroq bo'lsa-ku, doka ham ozroq ketadi, sovun ham ko'p sarf bo'lmaydi, - dedi sartarosh.

Yirtish so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ko'p ma'noli so'z sifatida izohlangan: 1. **Yirtmoq** fl. har. n. 2 *etn.* Marhumni ko'mish marosimida qatnashgan kishilarga va uning yaqinlariga beriladigan bir bo'lak ro'molchabop mato; durra; oqlik. *Janoza namozi o'qilib, yirtish va isqotlar bo'lindi.* S. Ayniy, Doxunda. *Marosimga yetib kelgan.. oddiy faqirlarga yirtish ulashilmoqda.* M. Muhammadjonov. Turmush urinishlari.³

Qissada mazkur termin ikkinchi ma'nosida (mato; durra; oqlik.) qo'llangan: - Bu sallam - **yirtish oluvchi** salla, - dedi Qori-Ishkamba javobida, - buni boshimga o'rab mozor boshida, o'liklarni ko'mayotgan chog'da hozir bo'lsam boshqa odamlarga bir gazdan **yirtish** berayotgan bo'lsalar, menga ikki gaz beradilar.

Misollar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, badiiy asarda terminlar qahramon nutqini individuallashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi hamda yozuvchining badiiy maqsadini yorqinroq aks ettirishga zamin yaratadi.

Xullas, Sadridin Ayniyning "Sudxo'ning o'limi" qissasi Buxoro amirligining XX asr boshlaridagi hayoti, o'sha davrda yashagan oddiy mehnatkash xalq hayoti, amaldorlarning noinsofliqi haqida hikoya qiluvchi asar hisoblanadi. Asarda ko'plab ijtimoiy-siyosiy leksikaga xos terminlar qo'llanilgan bo'lib, ushbu maqolada faqat hukmdorlikka va davlat boshqaruviga xos ba'zi terminlargina misol tariqasida keltirildi. Hozirgi paytda bu mavzu maxsus tadqiqotni talab etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). -T.: "TURONIQBOL" nashriyoti, 2021. - 204 b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, 2006. 2-jild, 102-bet.

² O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, 2006. 2-jild, 102-bet.

³ O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, 2006. 1-jild 270-bet.

3. Sadridin Ayniy. Sudxo‘rning o‘limi. Eski maktab: qissalar. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. -240 b.
4. Нейматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1995. – 128 б.
5. Никитин М.В. Основы лингвистической теории значения. – Москва: Высшая школа, 1988. – С. 92-167.
6. Сафарова Л. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1996. – 48 б.